



TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISHDA DAVLAT BYUDJETNING AHAMIYATI

Iboyev Saxiddin Mansurovich

Mustaqil izlanuvchi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston

iboevsakhiddin@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0018-5178

THE IMPORTANCE OF THE STATE BUDGET IN FINANCING EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Sakhiddin Iboev

Independent researcher,

Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan

iboevsakhiddin@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0018-5178

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjetining tutgan o'rnini, uning ta'lim sifati va tizim barqarorligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim sohasiga ajratilayotgan byudjet mablag'larining dinamikasi, ularning yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishi hamda ushbu mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashdan iborat. Maqolada ta'limni moliyalashtirish inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan va davlat moliyaviy siyosatining ushbu jarayondagi strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va analitik usullardan foydalanilgan. Davlat byudjeti xarajatlarining yillik o'zgarishlari asosida ta'lim, sog'liqni saqlash va fan kabi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgan mablag'larning o'sish tendensiyalari aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ta'limga ajratilayotgan byudjet mablag'lari izchil ortib borib, maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, pedagoglar

mehnatini rag'batlantirish hamda ta'lim jarayonini raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish ulushining nisbatan pastligi tizimning uzoq muddatli innovatsion rivojlanishiga ma'lum cheklovlar keltirib chiqarishi aniqlangan.

Maqolada ta'lim sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanishda natijadorlik ko'rsatkichlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimini barqaror rivojlantirish va inson kapitalini mustahkamlashga qaratilgan moliyaviy siyosatni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Abstract.

This article analyzes the role of the state budget in financing educational institutions in the Republic of Uzbekistan and its impact on the quality of education and the stability of the education system. The main objective of the study is to assess the dynamics of budget allocations to education, their

distribution across key areas, and the effectiveness of the use of public funds.

Education financing is examined as a crucial factor in human capital development, and the strategic importance of state financial policy in ensuring sustainable educational development is substantiated.

The research employs methods such as scientific abstraction, comparative analysis, statistical analysis, and analytical evaluation. Based on the analysis of annual changes in state budget expenditures, growth trends in allocations to education, healthcare, and science within the social sector are identified. The findings indicate that in recent years, public spending on education has steadily increased, contributing to the improvement of preschool, general secondary, and higher education infrastructure, the motivation of teaching staff, and the digitalization of the educational process. At the same time, the relatively low share of funding allocated to science and research activities has been identified as a potential constraint on the long-term innovative development of the education system.

The article proposes practical recommendations aimed at improving the efficiency of education financing, including the introduction of performance-based indicators for budget expenditures, the expansion of public-private partnership mechanisms, and increased support for scientific research and innovation. The results of the study can be used in improving public financial management in education and in developing policies focused on strengthening human capital and ensuring sustainable socio-economic development.

Kalit soʻzlar: davlat byudjeti, taʼlim tizimi, moliyalashtirish, ijtimoiy soha xarajatlari, taʼlim islohotlari, budget dinamikasi, fan va taʼlim xarajatlari, raqamlashtirish.

Keywords: state budget, education system, financing, social spending, education reforms, budget dynamics, science and education spending, digitalization.

Kirish

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri bu taʼlim tizimining sifatidir. Taʼlim sohasi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi strategik yoʻnalish boʻlib, uning samarali faoliyat yuritishi bevosita moliyaviy manbalar bilan taʼminlanish darajasiga bogʻliq. Shu nuqtayi nazardan davlat byudjeti taʼlim muassasalarining barqaror rivojlanishini, infratuzilmasini modernizatsiya qilishni va oʻquv jarayonining sifatini oshirishni taʼminlovchi eng muhim moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda taʼlim sifatini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar aynan davlatning barqaror va maqsadli moliyaviy qoʻllab-quvvatlashiga tayanadi.

Taʼlim sohasini moliyalashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Zero, taʼlimga yoʻnaltirilgan xarajatlar uzoq muddatli natija berib, kelajak avlodning kasbiy malakasi va bilim darajasini belgilaydi. Shu bois koʻplab iqtisodchi olimlar taʼlimga qilingan investitsiyalarni inson kapitalini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida eʼtirof etadilar. Inson kapitalining oʻsishi esa mehnat unumdorligining oshishi, innovatsion faoliyatning kuchayishi, iqtisodiy oʻsish surʼatlarining barqarorlashuvi kabi natijalarni taʼminlaydi. Bu jarayonda davlat byudjeti orqali amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat taʼlim tizimini strategik rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston sharoitida soʻnggi yillarda taʼlimga ajratilayotgan byudjet mablagʻlari hajmi yil sayin koʻpayib bormoqda. Maktabgacha taʼlim muassasalari uchun yangi binolar qurilayotgani,

umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasi yangilanayotgani, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy etilayotgani va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qo'shimcha mablag'lar ajratilayotgani davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy natijasidir. Ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy o'quv qurollari, laboratoriyalar va axborot texnologiyalari bilan jihozlash ham davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Biroq ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda byudjet mablag'larining ahamiyati yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu jarayon bir qator muammolar bilan ham bog'liq. Eng avvalo, xarajatlar samaradorligini ta'minlash, mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishini nazorat qilish, ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish muhim masalalardan biri sifatida ko'rilmogda. Shuningdek, ta'lim sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, grantlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish zarurati ham mavjud.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'limning raqamlashtirilishi, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish ham qo'shimcha moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bu esa davlat byudjeti mablag'larini oqilona rejalashtirish va ularni natijadorlik mezonlari asosida taqsimlashni dolzarb vazifaga aylantiradi. Xalq ta'limi, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida ustuvor yo'nalishlar

bo'yicha byudjet xarajatlarini optimallashtirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Material va metod

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati yoritishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Mamlakatimizda ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning joriy holati taqqoslama tahlil, statistik tahlil, analiz kabi metodlardan foydalanilgan holda o'rganilgan.

Natijalar

O'zbekiston davlat byudjeti tarkibida ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda budjet xarajatlarining tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, sog'liqni saqlash va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadlariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi izchil ortib bormogda. Bu esa davlatning "inson kapitali – barqaror rivojlanish poydevori" degan strategik yondashuvini amalda ro'yobga chiqayotganini anglatadi.

Ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan xarajatlarning yilma-yil ko'payishi ko'proq ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va aholining ijtimoiy himoyasi kabi yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, ta'limga ajratilayotgan mablag'larning ortib borayotgani davlatning kelajak avlod salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan qat'iy siyosatini ifodalaydi. Ta'lim xarajatlari nafaqat umumiy boshlang'ich va o'rta ta'limni qo'llab-quvvatlash, balki oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, pedagoglar mehnatini rag'batlantirish hamda barqaror infratuzilma yaratishga xizmat qilmoqda.

1-jadval.

Davlat budjeti xarajatlarning ijtimoiy sohalarga ajratilishi (trln so'm)¹

Xarajatlar	Ijro 2023	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026	Mo'ljal 2027	Mo'ljal 2028
Xarajatlar, jami	281,1	310,9	388,9	402,4	460,7	527,9
Ijtimoiy soha, shundan:	163,3	174,4	205,8	220	256,2	293,9
Ta'lim	65,4	77,2	92,2	100,3	121,7	141,2
Sog'liqni saqlash	32,4	37,6	43,9	48,9	55,6	63,7
Madaniyat	3,1	3,3	4,3	4,4	4,9	5,2
Sport	3,0	3,7	4,0	3,7	4,0	4,3
Fan	1,8	2,1	2,2	2,4	2,8	3,0
Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	19,2	15,3	16,8	17,0	19,1	21,8
Aholiga past tariflar qo'llash hisobiga energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	20,9	15,3	15,6	13,4	13,3	13,1
Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	2,7	1,7	2,7	2,4	3,8	3,9
Pensiya jamg'armasiga transfertlar	13,8	16,3	20,2	23,0	20,0	18,0
Ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalar	1,1	1,4	2,5	2,7	3,0	3,3

Yuqoridagi jadval davlat byudjeti xarajatlarning yillik dinamikasini aks ettirib, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga ajratilayotgan mablag'larning bosqichma-bosqich oshib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy soha xarajatlarning yildan-yilga muttasil o'sishi aholining turmush darajasini yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan izchil siyosatning amaliy ifodasidir. Jadvalda nafaqa va ijtimoiy yordamlar, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan, sport kabi yo'nalishlarga ajratilayotgan mablag'larning barqaror o'sishi bu sohalarni modernizatsiya

qilish hamda aholining asosiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilganini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, ta'lim xarajatlarning yil sayin keskin oshib borayotgani davlat byudjetida ushbu soha alohida ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilayotganini tasdiqlaydi. 2023–2028 yillar davomida ta'limga ajratilayotgan mablag'larning muntazam ko'payishi ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, o'qituvchilar mehnatini qo'llab-quvvatlash va sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.


Ta'lim muassasalarini moliyalashtirish jarayonida davlat byudjeti mablag'larining taqsimlanishi, ularning

¹ <https://www.imv.uz>

maqsadli sarflanishi va samaradorlik darajasi tizimning real holatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim sohasiga ajratilayotgan byudjet xarajatlari hajmining muntazam oshib borayotgani sektorni rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvning mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ajratilgan mablag'larning ko'lam va ulardan foydalanish darajasi ta'lim muassasalarining infratuzilmasi, pedagogik salohiyati hamda o'quv jarayonining sifatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda, uning turlarini

diversifikatsiya qilish, ya'ni gibrilid ta'lim modellarini kengaytirish, til o'rgatish, tadbirkorlik, texnologiyalar va kasb-hunarga yo'naltirilgan qisqa muddatli kurslar, oromgohlarni rivojlantirish, xususiy ta'limda STEM ta'lim dasturlarini keng joriy qilish, xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar va innovatsion o'quv markazlari tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu amaliy ishlarning barchasi ma'lum miqdordagi moliyaviy mablag'larni talab qiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimi asosan davlat byudjetidan moliyalashtiriladi va unga byudjetning asosiy xarajatlari sifatida qaraladi va yildan yilga ijtimoiy soha tarkibidagi ta'lim xarajatlari oshib bormoqda.



1-rasm. Ta'lim xarajatlari tarkibi (trln. so'm)²

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar ta'lim sohasi xarajatlarining 2023–2025-yillar davomida izchil oshib borayotganini ko'rsatadi. 2023-yilda ta'limga yo'naltirilgan xarajatlari 65,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 77,2 trln so'mgacha yetgan. Ushbu o'sish 11,8 trln so'mlik qo'shimcha mablag'ni anglatadi. 2025-yilga kelib esa ta'lim xarajatlari 92,2 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda, ya'ni 2023-yilga nisbatan qariyb 41 foizga o'sish kuzatilmoqda.

Mazkur dinamika ta'lim tizimini moliyalashtirish davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri ekanini yana bir bor

tasdiqlaydi. Yillik oshishning barqaror xarakter kasb etayotgani esa, bir tomondan, aholining sifatli ta'limga bo'lgan talabining ortib borishi, ikkinchi tomondan, zamonaviy infratuzilmalarni kengaytirish, pedagoglar mehnatini rag'batlantirish va o'quv jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan islohotlarning davom ettirilayotganini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan islohotlarning eng ustuvor yo'nalishi sifatida ta'lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash 2026–2028-yillar uchun mo'ljallangan byudjetnomada ham belgilab

² <https://www.imv.uz>

berilgan. Byudjetnomaga ko'ra ta'lim va fan sohasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar amalga oshirilishi belgan o'tilgan:

- maktablarda navbatlilik koeffitsiyentini pasaytirish.

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash uchun zamonaviy texnikalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilab borish;

- umumta'lim maktablari uchun har yili 10 ming donadan ortiq yangilangan sport jihozlari to'plamlari xarid qilishga mablag' ajratish orqali ularni to'liq zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash;

- ta'lim tashkilotlarini "Toza qo'llar" dasturi doirasida sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq ta'minlash, ichimlik suv ta'minoti va sanitariya-gigiyena obyektlari infratuzilmasini yaxshilash;

- MTTlar qamrovini oshirib borish;

- maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarni, shu jumladan, birinchi navbatda "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalarning farzandlarini qamrab

olish maqsadida barcha tuman va shaharlarda ilk rivojlanish markazlarini tashkil etish;

- davlat MTTlarni to'liq didaktik materiallar bilan ta'minlash;


- maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga har yili 1 500 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

- oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini jami bitiruvchilar soniga nisbatan 50 foizga yetkazish, bunda oliy ta'lim sifatini va xususiy sektorlar rolini oshirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirish;

- davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura yo'nalishida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar kontrakt to'lovlarini budjetdan qoplab berish orqali ular ulushini jami magistratlar soniga nisbatan 30 foizdan oshirish;

- oliy va professional ta'lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti uchun resurslar ajratib borish³.

O'tgan yilgi ta'lim xarajatlarini yo'nalishlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi diagrammaga murojaat qilishimiz lozim.



2-rasm. Ta'lim va fan xarajatlari (2024-yil)⁴

³ 2026-2028-yillar uchun byudjetnoma

⁴ <https://www.imv.uz>

Ushbu diagrammada o'tgan 2024-yilda ta'lim va fan yo'nalishlariga ajratilgan mablag'lar taqsimoti aks etgan. Unda eng katta xarajat hissasi umumiy o'rta ta'limga to'g'ri kelgani yaqqol ko'rinadi. Mazkur yo'nalish uchun 49 trln so'm ajratilgani ta'lim tizimining asosiy e'tibori aynan shu bosqichga qaratilganini ko'rsatadi.

Keyingi o'rinlarda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTTlar) va oliy hamda o'rta maxsus ta'lim turibdi. Ularning xarajatlari mos ravishda 15 trln so'm va 13 trln so'mni tashkil etadi. Bu mablag'lar ushbu sohalardagi islohotlar va kadrlar tayyorlash jarayonini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Eng kam mablag' fan yo'nalishiga ajratilgan bo'lib, u atigi 2 trln so'mni tashkil etadi. Bu ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar moliyalashtirilishi boshqa yo'nalishlarga nisbatan ancha past ekanini ko'rsatadi. Ushbu taqsimot ta'lim tizimining asosiy resurslari umumiy o'rta ta'limga yo'naltirilayotganini, qolgan bo'g'inlar esa nisbatan o'rtacha darajada moliyalashtirilayotganini ko'rsatib turibdi. Bu esa kelgusida fan sohasini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillar ta'lim sohasini moliyalashtirishda davlat byudjetining o'rni nihoyatda muhim ekanini ko'rsatadi. Byudjet xarajatlarning yillik dinamikasi ta'lim tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, infratuzilmani yaxshilash va pedagoglar mehnatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil siyosat olib borilayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda ta'limga ajratilgan mablag'lar hajmining sezilarli o'sishi tizimning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga mos keladi. Biroq mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud bo'lib, ular bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ushbu masalalarning yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchidan ta'lim tizimida ajratilayotgan mablag'lardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy etish. Hozirgi kunda byudjet mablag'lari hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning real ta'siri to'liq baholanmayapti. Samaradorlik indikatorlari orqali har bir yo'nalish bo'yicha natijalar aniq o'lchanadi, masalan, o'quvchi qamrovi kengayishi, o'qituvchilar malaka darajasining oshishi yoki infratuzilma yaxshilanishi kabi ko'rsatkichlar moliyalashtirish hajmi bilan taqqoslanadi. Bu yondashuv nafaqat mablag'larni oqilona sarflashga, balki byudjet rejalashtirish jarayonini ancha aniq va maqsadga yo'naltirilgan qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan ta'lim sohasiga xususiy sektorni faol jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. Bu nafaqat qo'shimcha moliyaviy manbalar yaratadi, balki ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv tajribasi va texnologiyalar kirib kelishini ta'minlaydi. Xususan, maktabgacha ta'lim, kasbiy ta'lim yoki qo'shimcha ta'lim yo'nalishlarida xususiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mavjud infratuzilmani kengaytirish va sifatni oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, ta'limning ayrim bosqichlarida davlat va biznes hamkorligi sezilarli natijalar berishi mumkin.

Uchinchidan ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish. Ayni paytda ilm-fan uchun ajratilayotgan mablag'lar ta'lim xarajatlari tarkibida eng past ulushga ega bo'lib, bu kelajakda bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, yosh olimlar uchun grant dasturlarini kengaytirish, universitetlarda ilmiy maktablarni qo'llab-

quvvatlash davlatning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladi. Innovatsion tadqiqotlar ta'lim jarayoniga yangi metodikalar, texnologiyalar va yechimlar olib kirib, tizimning raqobatbardoshligini oshiradi.

Munozara

Mamlakatimizda ta'lim tizimini moliyalashtirishning turli jihatlarini o'zbekistonlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar berilgan. Jumladan, Karimova S.Sh. esa o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim muassasalarida DXSH(Davlat-xususiy sheriklik)ni qo'llashning ustunlik jihatlarini to'g'risida xulosalarini keltirib o'tadi. "DXSH mexanizmini joriy etishning ahamiyati maktabgacha ta'lim muassasalarini xarajatlarini rejalashtirish va sarflash shaffofligini oshirish imkonini berishi"⁵ ekanligini qayd etib o'tadi. Ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir o'zbekistonlik tadqiqotchilardan F.A.Murodova "maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom ovqatlantirishning outsorsing usulini joriy etish muhim ahamiyatga ega"⁶ ekanligi o'z tadqiqotlarida ko'rsatib bergan.

H. Do'stmuxammad xalq ta'limini moliyalashtirishning samaradorligini oshirish va o'ziga xos jihatlari to'g'risida xulosalar beradilar. Jumladan, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "Maktab ta'limini aholini to'liq qamrab olishiga erishish uchun byudjet mablag'laridan foydalanishni cheklamaslik; maktabda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan qoplanishini nazarda tutuvchi me'yorlarni kiritmaslik; Maktab ta'limining tijoratlashuv xususiyatiga ega

bo'lishiga yo'l qo'ymaslik; Maktab ta'limini byudjetdan moliyalashtirishda oraliq maqsadlardan yakuniy maqsadlarni aks ettiruvchi tamoyillarga o'tish"⁷ kabilarni ta'kidlagan. Tadqiqot natijalari Do'stmuxammad H. tomonidan bildirilgan fikrlar bilan qisman mos keladi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalarini alohida tadqiqot ob'yekti sifatida ajratib olingan. N.Fedina tomonidan maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligini baholashni xarakterlovchi to'rtta ko'rsatkichni ta'kidlab o'tgan:

- aholining maktabgacha ta'lim xizmatlariga talabini inobatga olgan holda davlat kafolati asosida maktabgacha ta'limni ta'minlash;

- bolalarga ta'lim berish va boshqa xarajatlarni amalga oshirish shart-sharoitlari;

- kadrlar salohiyati;

- byudjetdan moliyalashtirish va moliya-xo'jalik faoliyati⁸. Shuningdek, Fedina N. tomonidan ilgari surilgan maktabgacha ta'lim tizimi samaradorligini baholash mezonlari bilan solishtirilganda, O'zbekistonda moliyalashtirish hajmi oshayotgan bo'lsa-da, kadrlar salohiyati va ilmiy-ta'limiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarida hali foydalanilmagan imkoniyatlar mavjudligi aniqlanadi. Barcha davlatlar ta'lim tizimida ushbu fikrlar o'rinli hisoblanadi va mamlakatimiz ta'lim tizimida ham ushbu munosabatlarning rivojlanishi tizim rivojiga katta hissa qo'shadi.

Mazkur tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlarda ilgari surilgan xulosalarni

⁵ Karimova S.Sh. Maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy samaradorligi // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №6. – C. 56–62.

⁶ Murodova. F.A. Outsorsing tizimi va uning ta'lim xizmatlaridagi qo'llanilishi // TDIU ilmiy axboroti. – 2020. – №1. – C. 91–96.

⁷ Do'stmuxammad H. Xalq ta'limini moliyalashtirish. Monografiya.-T.: IQTISODIYOT, 2016. - B. 142.

⁸ Федина Н.В. Организационно-педагогические условия повышения эффективности муниципальной системы дошкольного образования: автореферат. к.п.н.–Елец. ЕлГУим. И.А.Бунина, 2005. – С. 24.

to'ldiradi va rivojlantiradi. Davlat byudjeti ta'lim tizimining barqaror faoliyati uchun asosiy moliyaviy manba bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, kelgusida moliyalashtirish samaradorligini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish orqali ushbu tizimning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash zarurligi munozara natijasi sifatida asoslab beriladi.

Xulosa

Ta'lim muassalarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyatini o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. O'zbekistonda ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy va hal qiluvchi moliyaviy manba hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasiga ajratilayotgan byudjet mablag'larining yildan-yilga barqaror oshib borayotganini ko'rsatdi va bu holat davlatning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik siyosatini tasdiqlaydi.

2. Ta'lim xarajatlarining ortishi maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimlarida infratuzilmani yaxshilash, ta'lim qamrovini kengaytirish hamda pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'limga

yo'naltirilgan mablag'larning yuqori ulushi ushbu bosqichning ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanini ifodalaydi.

3. Ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va ta'lim xizmatlari sifatini oshirish uchun muhim imkoniyat sifatida baholandi. Xususan, maktabgacha va qo'shimcha ta'lim yo'nalishlarida xususiy sektor ishtiroki moliyaviy yukni kamaytirishi mumkin.

4. Tadqiqot natijalari fan va ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish ulushining nisbatan pastligini ko'rsatdi. Bu holat bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonini sekinlashtirishi mumkin bo'lib, kelgusida ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan byudjet siyosatini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Davlat byudjeti hisobidan ta'limni moliyalashtirish tizimi mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ta'limga yo'naltirilgan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ilmiy salohiyatni oshirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish orqali ta'lim tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2020). *Ta'lim to'g'risidagi Qonun* (O'RQ-637-son, 23-sentabr).
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Davlat byudjeti ijrosi va prognoz ko'rsatkichlari*. <https://www.imv.uz>
3. Do'stmuhammad. H. (2016). *Xalq ta'limini moliyalashtirish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Fedina. N. V. (2005). *Organizatsionno-pedagogicheskiye uslovi povysheniya effektivnosti munitsipalnoy sistemy doshkolnogo obrazovaniya* (PhD avtoreferati). Yelets: I. A. Bunin nomidagi Yelets davlat universiteti.



5. Karimova. S. Sh. (2021). Maktabgacha ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy samaradorligi. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 6, 56–62.
6. Murodova. F. A. (2020). Outsorsing tizimi va uning ta'lim xizmatlaridagi qo'llanilishi. *TDIU ilmiy axboroti*, 1, 91–96.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2022). *Education at a glance 2022: OECD indicators*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/3197152b-en> (Scopus indexed)
8. Psacharopoulos, G., & Patrinos. H. A. (2018). Returns to investment in education: A decennial review of the global literature. *Education Economics*, 26(5), 445–458. <https://doi.org/10.1080/09645292.2018.1484426> (Scopus indexed)
9. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. (2021). *Global education monitoring report 2021/2: Non-state actors in education*. Paris: UNESCO.
10. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2024). *Ta'lim tizimi statistik ma'lumotlari*. <https://www.gov.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2024). *Ta'lim va fan sohasidagi islohotlar*. <https://www.edu.uz>